“Rishton kulolchiligi” nomli kitob-albomi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti olimlari “O’zbekiston madaniy merosi jahon to’plamlarida” xalqaro multimediya loyihasi doirasida qator yirik ilmiy loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, Institutining "Tasviriy va amaliy bezak san’ati" bo’limi yetakchi ilmiy xodimi E.F.Gyul muallifligida “Rishton kulolchiligi” nomli kitob-albom o’zbek va rus tillarida nashrga tayyorlandi. (hammualliflar Ye.Yermakova, L.Kodzayeva).

Unda butun dunyoga mashhur Rishton kulolchiligi hamda ustalari haqida to’liq ma’lumotlar keltirilgan. Kitob-albom Rishton kulolchiligi rivoji bilan qiziquvchi mutaxassislar va keng ommaga mo’ljallangan.

Kitob-albomda Rishton kulolchiligi ustalarining noyob merosi sifatli illyustratsiyalar bilan taqdim etilgan.

Mazkur kitob-albom san’atshunos olimlar hamda sohaga qiziquvchi keng omma orasida katta qiziqish uyg’otmoqda.